

## Farg‘ona viloyatida kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari

2024- yil uchun


- I. Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni
- II. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o‘rinlari soni
- III. Umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar
- IV. Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari
- V. Sanoat
- VI. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
- VII. Qurilish
- VIII. Xizmatlar
- IX. Savdo faoliyati
- X. Ovqatlanish bilan ta‘minlash
- XI. Innovatsiya

### I. Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni (2025- yilning 1- yanvar holatiga)

2025- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 28 076 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining eng ko‘pi savdo sohasida 11 594 ta (jamiga nisbatan 42,5 %) sanoat tarmoqlarida 5 540 ta (19,7%), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 1 186 ta (4,2 %), qurilishda 2 023 ta (7,2 %), yashash va ovqatlanishda 1 843 ta (6,5 %) tashish va saqlashda 1 322 ta (4,7 %) qayd etilgan.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi (2025- yilning 1- yanvar holatiga)



### Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy mehnat ko'rsatkichlari

2024- yilda Farg'ona viloyati bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni 125 837 tani tashkil etgan. Ma'lumot uchun, 2023- yil hisobot yilida o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni 99 042 tani tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar sonining eng ko'pi Farg'ona shahri (27 087 ta), Qo'qon shahri (14 424 ta), Marg'ilon shahri (11 194 ta), Oltiariq tumani (8 925 ta), Uchko'prik tumani (8 388ta), Farg'ona tumanlariga (4 802 ta) to'g'ri kelgan.

2024- yilda bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan ayol xodimlar soni 28 732 tani tashkil etgan. Ma'lumot uchun, 2023- yil hisobot yilida o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan ayol xodimlar soni 23 467 tani tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan ayollar sonining eng ko'pi Farg'ona shahri (7 418 ta), Qo'qon shahar (3 491 ta), Marg'ilon shahar (2 940 ta), Oltiariq tumani (2 250 ta), Uchko'prik tumani (1 972 ta) va Farg'ona tumanlariga (1 032 ta) to'g'ri kelgan.

2024- yilda iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar sonining eng ko'pi sanoat (36 594 nafar), savdo (32 465 nafar), qurilishda (20 251 nafar) va xizmat ko'rsatish (22 535 nafar) ga to'g'ri kelgan.

2024- yilda Farg'ona viloyati bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 2 284,2 mlrd so'mni tashkil etgan. Ma'lumot uchun, 2023- yil hisobot yilida mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 1 897,0 mlrd . so'mni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmining eng ko'pi Farg'ona shahri 601,3 mlrd so'm, Qo'qon shahar 261,9 mlrd so'm, Uchko'prik tumani 226,9 mlrd so'm, Marg'ilon shahar 182,6 mlrd so'm, Oltiariq tumani 116,0 mlrd so'm, Toshloq tumani 68,0 mlrd so'm va Quvasoy shaharlariga 84,7 mlrd so'm to'g'ri kelgan.

Farg'ona viloyati bo'yicha 2024- yilda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 494,9 mlrd so'mni tashkil etgan. Ma'lumot uchun, 2023- yil hisobot yilida mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 420,6 mlrd so'mni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmining eng ko'pi Farg'ona shahri 154,2 mlrd so'm, Qo'qon shahar 57,3 mlrd so'm, Uchko'prik tumani 53,4 mlrd so'm, Marg'ilon shahar 45,0 mlrd so'm, Oltiariq tumani 25,2 mlrd so'm, Farg'ona tumani 17,4 mlrd so'm, va Buvayda tumaniga 18,1 mlrd so'm to'g'ri kelgan.

2024- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarning eng ko'p hajmi sanoatda (176,7 mlrd so'm), xizmat ko'rsatish ( 117,9 mlrd so'm), savdo (106,7 mlrd so'm), qurilishda (28,9 mlrd so'm) ga to'g'ri kelgan.

## II. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o'rinlari soni

2024- yil hisobot yilida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o'rinlari soni 31 288 tani tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha yangi ochilgan ish o'rinlari sonining eng ko'pi Farg'ona shahri (7 775ta), Marg'ilon shahar (3 002ta), Qo'qon shahar (2 970 ta), Oltiariq tumani (2 816ta), Farg'ona tumani (1 255 ta), Quvasoy shahar (1 073 ta) va Beshariq tuman va shaharlariga (1 031 ta) to'g'ri kelgan.

Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 2024- yilda 125 841 kishini tashkil etgan. Ma'lumot uchun, 2023- yil hisobot yilida mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 120 500 kishini tashkil etgan.

Tashqi o'rindoshlarni yillik o'rtacha soni 2024- yilda 489 kishi. Ma'lumot uchun, 2023- yil hisobot yilida tashqi o'rindoshlarni yillik o'rtacha soni 670 kishini tashkil etgan.

Fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 2024- yilda 127 449 kishini tashkil etgan. Ma'lumot uchun, 2023- yil hisobot yilida fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 873 kishini tashkil etgan.

### Hududlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni (birlikda)

|                     | Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda |              | Ulushi, % da |
|---------------------|-----------------------------------------------------------------------|--------------|--------------|
|                     | 2023- yil                                                             | 2024- yil    |              |
| <b>Viloyat jami</b> | <b>1 976</b>                                                          | <b>2 034</b> | <b>100,0</b> |
| Farg'ona sh         | 491                                                                   | 553          | 27,2         |
| Qo'qon sh           | 155                                                                   | 154          | 7,6          |
| Quvasoy sh          | 69                                                                    | 96           | 4,7          |
| Marg'ilon sh        | 118                                                                   | 151          | 7,4          |
| Oltiariq t          | 126                                                                   | 146          | 7,2          |
| Qo'shtepa t         | 20                                                                    | 27           | 1,3          |
| Bag'dod t           | 27                                                                    | 33           | 1,6          |
| Buvayda t           | 37                                                                    | 38           | 1,9          |
| Beshariq t          | 49                                                                    | 69           | 3,4          |
| Quva t              | 73                                                                    | 85           | 4,2          |
| Uchko'prik t        | 103                                                                   | 102          | 5,0          |
| Rishton t           | 85                                                                    | 118          | 5,8          |
| So'x t              | 7                                                                     | 24           | 1,2          |
| Toshloq t           | 53                                                                    | 54           | 2,7          |
| O'zbekiston t       | 86                                                                    | 99           | 4,9          |
| Farg'ona t          | 108                                                                   | 117          | 5,8          |
| Dang'ara t          | 54                                                                    | 65           | 3,2          |

|            |    |    |     |
|------------|----|----|-----|
| Furqat t   | 59 | 51 | 2,5 |
| Yozyovon t | 35 | 52 | 2,6 |

2024- yilda Fargʻona viloyati boʻyicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 034 tani tashkil etgan. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 58 taga koʻp demakdir. Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning, jami faoliyat koʻrsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonidagi ulushi 7,2 % ni tashkil etgan.

Hududlar boʻyicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar sonining eng koʻpi Fargʻona shahri 553 ta (27,2 %), Qoʻqon shahri 154 ta (7,6 %), Margʻilon shahar 151 ta (7,4 %) Oltiariq tumani 146 ta (7,2 %) va Rishton tumanlariga 118 ta (5,8 %) toʻgʻri kelgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarda oʻrtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mazkur korxonada mehnat daftarchalariga ega boʻlgan xodimlar soni 2 034 kishini tashkil qildi. Mehnat daftarchalari mavjud boʻlgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar 494,8 mlrd. soʻmga toʻgʻri kelgan.

#### **Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy mehnat koʻrsatkichlari**

|                                                                                                                         | <b>Oʻlchov birligi</b> | <b>2023- yil</b> | <b>2024- yil</b> |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------|------------------|------------------|
| Oʻrtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mazkur korxonada mehnat daftarchalariga ega boʻlgan xodimlar soni | kishi                  | 23 467           | 103 603          |
| Mehnat daftarchalari mavjud boʻlgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq toʻlash tarzidagi daromadlar           | mlrd. soʻm             | 420,6            | 2 283,9          |
| Hisobot yili oxiriga mazkur korxonada mehnat daftarchalari mavjud boʻlgan xodimlar soni                                 | kishi                  | 25 039           | 126 111          |
| shu jumladan oliy maʼlumotli                                                                                            | kishi                  | 3 086            | 23 565           |
| Hisobot yilida yangi ochilgan ish oʻrinlari soni                                                                        | birlik                 | 1 566            | 31 288           |
| Hisobot yilida qisqartirilgan ish oʻrinlari soni                                                                        | birlik                 | 902              | 16 776           |
| Hisobot yilida mazkur korxonada mehnat daftarchalari mavjud boʻlgan xodimlarning yillik oʻrtacha soni                   | kishi                  | 26 107           | 125 841          |
| Tashqi oʻrindoshlarning yillik oʻrtacha soni                                                                            | kishi                  | 64               | 489              |
| Fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik oʻrtacha soni                     | kishi                  | 132              | 1 146            |

### **III. Umumiy iqtisodiy koʻrsatkichlar**

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum 62 229,0 mlrd soʻmni tashkil etgan.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum miqdori va ulushining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻpi savdo sohasida 38 214,5 mlrd soʻm (61,4 %), sanoat tarmoqlarida 13 720,7 mlrd soʻm (22,0 %), qurilishda 5 556,4 mlrd soʻm (8,9 %), tashish va saqlashda 1 411,2 mlrd soʻm (2,3 %), qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 830,8 mlrd soʻm (1,3 %), yashash va ovqatlanishda 735,6 mlrd soʻm (1,2 %), sogʻliqni saqlash va koʻchmas mulk bilan bogʻliq operatsiyalar 336,6 mlrd soʻm (0,5 %), ijtimoiy xizmatlar koʻrsatishda 1 172,8 mlrd soʻm (1,9 %) ni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning eng ko'pi Farg'ona shahri (12 084,1 mlrd so'm), Qo'qon shahar (9 965,7 mlrd so'm), Marg'ilon shahar (6 960,3 mlrd so'm), Uchko'prik tumani (6 115,1 mlrd so'm) va Oltiariq tumanlariga (4 164,0 mlrd so'm) to'g'ri kelgan.

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdori 1 243,2 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan moliyaviy natijani 677,2 mlrd so'mga kamaygan.

Shuningdek, 2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalarning sof foydasi (zarar) miqdori 822,7 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan sof foydani 616,4 mlrd so'mga kamayishiga olib keldi.

Hududlar bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdorining eng ko'pi Farg'ona shahri (328,1 mlrd so'm), Qo'qon shahar (228,1 mlrd so'm), Buvayda tumani (304,2 mlrd so'm) Yozyovon tumani (220,1mlrd so'm), va Furqat tuman va shaharlariga (150,5 mlrd so'm) to'g'ri kelgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) miqdorining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'pi savdo -529,3 mlrd so'm (64,3 %), Boshqa xizmatlar sohasi - 157,2 mlrd so'm (19,1 %),qurilish - 103,1 mlrd so'mni (12,5 %), tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) va sof foydasi (zarar) miqdori (mlrd so'm)

|                                                    | Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) |                | Sof foyda (zarar) |              |
|----------------------------------------------------|------------------------------------------------|----------------|-------------------|--------------|
|                                                    | 2023- yil                                      | 2024- yil      | 2023- yil         | 2024- yil    |
| <b>Jami</b>                                        | <b>1 920,4</b>                                 | <b>1 243,2</b> | <b>1 439,1</b>    | <b>822,7</b> |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi           | -26,7                                          | -42,8          | -32,5             | -48,1        |
| Sanoat                                             | 445,2                                          | 96,0           | 336,7             | -7,4         |
| Qurilish                                           | 221,3                                          | 154,1          | 171,4             | 103,1        |
| Savdo                                              | 953,5                                          | 712,3          | 756,3             | 529,3        |
| Tashish va saqlash                                 | 68,5                                           | 25,5           | 28,8              | 5,3          |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 22,9                                           | 34,2           | 11,0              | 19,9         |
| Axborot va aloqa                                   | 174,3                                          | 48,1           | 139,0             | 44,8         |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 60,5                                           | 24,1           | 28,7              | 18,3         |
| Boshqa turdagi xizmatlar                           | 0,9                                            | 191,6          | -0,5              | 157,2        |

#### IV.Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari

2024- yilning 1- yanvar holatiga kichik korxona va mikrofirmalarning debitor qarzdorligi 8 495,9 mlrd so'm, kreditor qarzdorligi 10 604,1 mlrd so'mga yetgan.



Kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy koʻrsatkichlari mlrd soʻmda

|                                                                                        | 2023- yil | 2024- yil |
|----------------------------------------------------------------------------------------|-----------|-----------|
| Yil oxiriga debitorlik qarz                                                            | 6 576,2   | 8 495,9   |
| Yil oxiriga kreditorlik qarz                                                           | 8 483,2   | 10 604,1  |
| Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlangʻich (qayta tiklash ) qiymati boʻyicha bahosi | 16 988,0  | 16 035,4  |
| Yil oxiriga asosiy vositalarning eskirish summasi                                      | 3 176,2   | 3 983,3   |
| Yil oxiriga nomoddiy aktivlarning boshlangʻich qiymati boʻyicha bahosi                 | 77,0      | 71,0      |
| Yil oxiriga nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi summasi                              | 25,7      | 20,9      |
| Tugallanmagan qurilishlar (oʻrnatilmagan uskunalarini qoʻshgan holda)                  | 5 791,2   | 13 293,2  |

Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlangʻich (qayta tiklash) qiymati boʻyicha bahosi 16 035,4 mlrd soʻm, asosiy vositalarning eskirish summasi 3 983,3 mlrd soʻmni tashkil etgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum 1 612,6 mlrd soʻmni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 244,3 mlrd soʻmga koʻp demakdir. 2024- yilda rahbari ayol kishi boʻlgan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning ulushi jami sof tushumning 2,5% ni tashkil etgan.

Hududlar boʻyicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum hajmi va jamidagi ulushi

|                     | Hajmi, mlrd soʻm | Ulushi, % da |
|---------------------|------------------|--------------|
| <b>Viloyat jami</b> | <b>1 612,6</b>   | <b>100,0</b> |
| Fargʻona sh         | 446,0            | 27,7         |
| Qoʻqon sh           | 374,1            | 23,2         |
| Quvasoy sh          | 48,1             | 3,0          |
| Margʻilon sh        | 141,6            | 8,8          |
| Oltiariq t          | 27,6             | 1,7          |
| Qoʻshitepa t        | 5,3              | 0,3          |
| Bagʻdod t           | 10,3             | 0,6          |
| Buvayda t           | 32,6             | 2,0          |
| Beshariq t          | 44,7             | 2,8          |
| Quva t              | 60,9             | 3,8          |
| Uchkoʻprik t        | 56,5             | 3,5          |
| Rishton t           | 45,3             | 2,8          |
| Soʻx t              | 1,0              | 0,1          |
| Toshloq t           | 46,1             | 2,9          |
| Oʻzbekiston t       | 75,5             | 4,7          |
| Fargʻona t          | 57,5             | 3,6          |
| Dangʻara t          | 84,2             | 5,2          |
| Furqat t            | 40,7             | 2,5          |
| Yozyovon t          | 14,5             | 0,9          |

Hududlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning eng ko'pi Farg'ona shahri 446,0 mlrd so'm, Qo'qon shahar 374,1 mlrd so'm, Marg'ilon shahar 141,6 mlrd so'm, Dang'ara tumani 84,2 mlrd so'm, O'zbekiston tumani 75,5 mlrd so'm, Quva tumani 60,9 mlrd so'm, shuningdek, Uchko'prik tuman shaharlariga 56,5 mlrd so'm to'g'ri kelgan.

**Ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari  
(mlrd so'mda)**

|                                                                                       | 2023- yil | 2024- yil |
|---------------------------------------------------------------------------------------|-----------|-----------|
| Mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum                       | 1 368,2   | 1 612,5   |
| Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar tannarxi                                  | 1 153,4   | 1 330,1   |
| Foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi (zarari)                                     | 54,0      | 55,5      |
| Sof foyda (zarar (-))                                                                 | 37,3      | 38,8      |
| Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha bahosi | 501,4     | 517,1     |
| Yil oxiriga asosiy vositalarning eskirish summasi                                     | 90,4      | 109,6     |

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi (zarari) miqdori 55,5 mlrd so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2024- yilda rahbari ayol kishi bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning sof foydasi (zarar) miqdori 38,8 mlrd so'mni tashkil etgan.

**V.Sanoat**

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi 17 366,2 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu esa 2023- yilga nisbatan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotini 2 981,7 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

**Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti (ishlar, xizmatlar) hajmi (QQS va aksizsiz) (mlrd so'mda)**

|                     | Jami                                                                     |                 | Rahbari ayol kishi bo'lgan                                               |              |
|---------------------|--------------------------------------------------------------------------|-----------------|--------------------------------------------------------------------------|--------------|
|                     | Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi mlrd so'mda |                 | Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi mlrd so'mda |              |
|                     | 2023- yil                                                                | 2024- yil       | 2023- yil                                                                | 2024- yil    |
| <b>Viloyat jami</b> | <b>14 384,4</b>                                                          | <b>17 366,2</b> | <b>293,1</b>                                                             | <b>404,1</b> |
| Farg'ona sh         | 2 606,2                                                                  | 3 225,3         | 48,7                                                                     | 87,2         |
| Qo'qon sh           | 2 394,2                                                                  | 2 473,4         | 61,8                                                                     | 10,2         |
| Quvasoy sh          | 515,9                                                                    | 813,2           | 4,9                                                                      | 1,8          |
| Marg'ilon sh        | 1 360,1                                                                  | 1 537,5         | 52,1                                                                     | 62,5         |
| Oltiariq t          | 330,6                                                                    | 528,3           | 6,3                                                                      | 3,2          |
| Qo'shtepa t         | 986,5                                                                    | 422,8           | 2,0                                                                      | 1,1          |
| Bag'dod t           | 319,7                                                                    | 434,5           | 0,8                                                                      | 0,1          |
| Buvayda t           | 453,1                                                                    | 670,5           | 4,1                                                                      | 0,5          |



|               |         |         |       |       |
|---------------|---------|---------|-------|-------|
| Beshariq t    | 724,3   | 1 062,5 | 1,9   | 20,1  |
| Quva t        | 183,4   | 238,5   | 6,2   | 3,4   |
| Uchkoʻprik t  | 1 923,3 | 2 392,0 | 5,8   | 5,1   |
| Rishton t     | 146,7   | 172,1   | 2,3   | 4,5   |
| Soʻx t        | 44,1    | 67,1    | 0,01  | 0,1   |
| Toshloq t     | 244,4   | 639,4   | 10,9  | 30,3  |
| Oʻzbekiston t | 462,2   | 659,8   | 4,5   | 2,7   |
| Fargʻona t    | 256,4   | 262,2   | 4,4   | 23,8  |
| Dangʻara t    | 677,1   | 952,4   | 59,3  | 141,9 |
| Furqat t      | 220,7   | 535,1   | 258,6 | 1,4   |
| Yozyovon t    | 153,1   | 279,6   | 2,2   | 4,3   |

Hududlar boʻyicha kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi eng koʻpi, Fargʻona shahrida 3 225,3 mlrd soʻm, Qoʻqon shahar 14,2 mlrd soʻm, Uchkoʻprik tumani 2 392,0 mlrd soʻm, Margʻilon shahar 1 537,5 mlrd soʻm, Beshariq tumani 1 062,5 mlrd soʻm, Dangʻara tumani 952,4 mlrd soʻm, Quvasoy shahar 4,7 mlrd soʻmni tashkil etgan. 2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi 404,1 mlrd soʻmni tashkil etgan.

2024- yilda rahbari ayol kishi boʻlgan kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi, jami kichik korxona va mikrofirmalar ishlab chiqargan sanoat mahsulotining 2,3 % ini tashkil etdi. Hududlar boʻyicha sanoat mahsuloti hajmining eng katta ulushi Dangʻara tumaniga (141,9 mlrd soʻm) toʻgʻri keldi.

## VI. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

2024- yilda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida, faoliyat turlari boʻyicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi 717,0 mlrd soʻmni tashkil etgan.

*Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida, faoliyat turlari boʻyicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi (2024- yilda).*

|                                                                          | Hajmi, mlrd<br>soʻmda |
|--------------------------------------------------------------------------|-----------------------|
| <b>Jami</b>                                                              | <b>717,0</b>          |
| Oʻrmonchilik va yogʻoch tayyorlash                                       | 0,02                  |
| Baliq ovlash va akvakultura                                              | 0,2                   |
| Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat koʻrsatish | 716,7                 |

